

## DALACHOY YETISHTIRISH TEENOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduraximov Mingjigit Kattabekovich

Samarqand davlat universiteti professori, q.x.f.d., Samarqand.

Chimirov Javoxir Zokir o'g'li

Samarqand davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** *Dalachoyni mart oyining oxiri va aprel oyining boshlarida urug'lar stratifikasiya qilinib sabzavot ekadigan seyalkalarda qator oralarini 60 sm li va urug'ni 0,5—1 sm chuqurlikda ekiladi. Ekish sxemasini rostlash uchun har 10 sm ga bitta o'simlik qoldirilib yagona qilinadi. Tajribada eng yuqori hosildorlik 60x10 sm sxemada ekilganda olingan bo'lib bu variantga dorivorlikga ishlataladigan homashyosi gekdardan 13 sentnerga, urug'lik hosili 350 kgni tashkil etdi.*

**Kalit so'zlar:** *Dalachoy, ekish sxemasi, dorivorlik, o'simliklar o'sishi, rivojlanishi, hosildorlik*

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ВЫРАЩИВАНИЯ ЗВЕРОБОЯ

**Аннотация:** *В конце марта – начале апреля семена зверобоя стратифицируют в поле и высевают в сейлки для посадки овощей, с расстоянием 60 см и глубиной 0,5-1 см. Для корректировки схемы посадки оставляют по одному растению через каждые 10 см и делают равномерным. В опыте наибольшая урожайность была получена при посадке по схеме 60x10 см, при этом по этому варианту лекарственные травы составляли 13 ц/га, а урожайность семян - 350 кг.*

**Ключевые слова:** зверобой, схема посадки, лекарственное средство, рост растений, развитие, урожайность.

## IMPROVING HUPERISUM PERFORATUM GROWING TECHNOLOGY

**Abstract:** *The seeds are stratified in the field and sown in seeders for planting vegetables, with a distance of 60 cm and a depth of 0.5-1 cm at the end of March – beginning of April. To adjust the planting pattern, one plant is left every 10 cm and is made uniform. In the experiment, the highest yield was obtained when planting according to the 60x10 cm pattern, while according to this option, medicinal herbs amounted to 13 c/ha, and the seed yield was 350 kg.*

**Key words:** *Hypericum perforatum L., planting scheme, medicinal product, plant growth, development, yield.*



## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20 may 2022 yilda "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-251-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qarorda dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish hamda qayta ishlashni tashkil etish, dorivor o'simliklarning madaniy plantasiyalarini barpo etishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o'simliklarni keng qo'llash asosiy maqsad etib belgilangan.

Dalachoy Huperisum perforatum L. ning botanik ta'rifi. Huperisum L turkumi Dalachoydoshlar (Huperisaceae) oilasiga mansubdir. Bu oila o'z ichiga 47 turkum va 950 ga yaqin turlarni oladi [7]. Bu oilaning ko'pchilik turlari yer yuzida keng tarqalgan bo'lib, ularning asosiy vakillari daraxt va buta shaklda bo'lib tropik iqlim sharoitida tarqalgan. Ozchilligi o't o'simlik bo'lib shu guruxga Huperisum L turkumi ham kiradi. Bu turkum 200 tadan 400 tagacha turlarni o'z ichiga oladi [8].

Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish, ularning botanik ta'rifi va biologik xususiyatlari ham olimlar tamonidan atroflicha o'rganilmoqda. Jumladan M.X. Begmatova tomonidan Samarcand viloyatining bo'z tuproqlari sharoitida dalachoy o'simligi (*H. perforatum*) ning ontogenez bosqichlarida o'sish-rivojlanishi, vegetativ va generativ organlarining shakllanishi, hamda turli ekish sharoitlari va muddatlarida urug'ining unuvchanligi, vegetasiya davrlaridagi morfo-biologik xususiyatlari hamda gullah biologiyasi o'rganilgan [2,3,4,5,6].

Tadqiqotning maqsadi. Samarcand viloyati sharoitida Dalachoy (Huperisum perforatum) yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish orqali o'simliklar o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'sirini o'rganish va maqbul variantni ishlab chiqarida joriy etish uchun takliflar kiritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Dalachoy o'simligiini yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish va ekish sxemasini to'g'ri aniqlash hamda o'sishi, rivojlanishi, mahsuldarligi, hosildorligi tovar va urug'bop hosil chiqimini aniqlashdan iborat.

Tajriba obyekti va uslubiyati. Dalachoy ko'p yillik o't o'simligi bo'lib, asosan urug'idan ko'paytiriladi. Tadqiqot obyekti sifatida istiqbolli dorivor o'simliklardan Dalachoy (Huperisum perforatum) tanlab olindi va 2023-2024 yillarda dala tajribalarida o'rganildi. Samarcand hududining tuproq-iqlim sharoitlari o'rganildi. O'simliklar o'sib rivojlanishi T.A.Rabotnov (1960) va O.V.Smirnova (1997) usuli asosida o'rganildi. O'simlikning mavsumiy rivojlanish maromini o'rganishda I.N.Beydeman (1960,1974) usullaridan, gullah biologiyasi, kunlik va mavsumiy gullah dinamikasini o'rganishda A.N.Ponomarev (1960) va X.Q.Qarshiboyev va boshq. (2008) metodlaridan foydalanildi. Tajribada fenologik kuzatishlar va biometrik o'lchashlar Nurmatov Sh, Mirzajonov Q, Avliyoqulov A,



Bezborodov G, Ahmedov J, Teshayev Sh, Nièzaliyev B, Xoliqov B, Xasanov F, Mallaboyev N, Tillabekov B, Ibragimov N, Abdullayev Sh, Shamsiyev A, —Dala tajribalarini o'tkazish uslublari, O'zPITI.- Toshkent, 2007.-146 b. va B. A. Dospexov [Metodika polevogo opyta 1985.] usulidan foydalanildi. Ekish uchun har bir variantga 200 tadan to'lik yetilgan urug'larni ekildi. Dala tajribalari 4 ta variantda 60x15 sm (nazorat), 60x10 sm, 60x20 sm, 60x30 sm sxemalarda va 4 takrorlikda ekildi.

Tajriba natijalari va ularning muhokamasi. O'tkazilgan tajribalar va olingan ma'lumotlar asosida dalachoy yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin.

Tuproqni ekishga tayyorlash. O'simlikni ekishdan oldin yerni kuzda 28-30 sm chuqurlikda haydaladi. Shudgordan oldin gektariga 20—25 tonna go'ng va 50 kg dan superfosfat o'g'iti beriladi. Dalachoydan yuqori hosil yetishtirish uchun erta bahorda tuproqning yuqori qatlagini urug' yaxshi ko'miladigan, normal unib chiqishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladigan qilib yumshatish, havo almashinishini yaxshilash, pastki qatlamlardan uruqqa nam kelishini ta'minlash va begona o'tlarni yo'qotishga qaratish kerak bo'ladi. erta bahorda yerni ekin ekishdan oldin boronalab tekislanadi, o'sib kelaётган bir yillik begona o'tlar yo'qotiladi.

Ekish muddati va me'yori. Mart oyining oxiri va aprel oyining boshlarida urug'lar stratifikasiya qilinib sabzavot ekadigan seyalkalarda qator oralari 60 sm li va urug'ni 0,5—1 sm chuqurlikda ekiladi. Urug'i juda mayda bo'lganligi uchun uni qumga aralashdirib (1 : 50) ekiladi. Gektariga 4—5 kg dan urug' sarflanadi. Uning urug'lari 5—6°S da 12—16 kundan keyin ko'karib chiqishi mumkin. Lekin urug'larning yerdan tez ko'karib chiqishida tuproq harorati 18—20°S bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar dalachoy urug'lari kuzda ekilgan bo'lsa ular erta bahorda tez rivojlanadi va hosildorligi bahorda ekilgan urug'larga nisbatan yuqori bo'ladi.

O'simliklarni parvarishlash. O'simlikning maysalari nozik bo'lganligi sababli uni begona o'tlardan tozalab, tezlik bilan qator oralari kultivasiya qilinib yumshatiladi. Agar o'simlik qalin joylashgan bo'lsa uni yagona ham qilinadi va 1 m yerga 10 tadan o'simlik goldiriladi.

Bizning tajribalarimizda eng yuqori hosildorlik 60x10 sm sxemada ekilganda olingan bo'lib bu variantga dorivorlikga ishlataladigan hom-ashyosi gekdardan 13 sentnerga, urug'lik hosili 350 kgni tashkil etdi. Birinchi yili o'simlikni 10—12 marta sug'oriladi, qator oralari 4—5 marta kultivasiya bilan yumshatiladi va 3—4 marta oralari qo'lda begona o'tlardan tozalanadi. O'suv davomida gektar hisobiga 40 kg dan azot, 30 kg dan kaliy o'g'iti beriladi. O'simlikni oziqlantirish, sug'orishdan oldin amalga oshiriladi. Iyun va iyul oylarida dalachoy to'liq gullaganda uning yeri ustidan qismini gulli shoxlari shonasi 30 sm dan oshmasdan silos o'radian mexanizmlar yordamida yoki qo'lda o'rib olinadi va xom-





ashyosini tezlik bilan maxsus moslamalarda quritiladi. Birinchi o'rimdan keyin o'simlikning yaxshi rivojlanishi uchun dalachoy ekilgan maydonlarning har gektariga 80—100 kg dan ammosof o'g'iti bilan oziqlantiriladi. Oradan 30—40 kun o'tgandan keyin dalachoyni ikkinchi marta o'rib olish mumkin. Uning hosildorligi birinchi o'rimga nisbatan ko'proq ham bo'lishi mumkin. Dalachoy birinchi yili meva bermaydi. Ikkinchi yili erta bahorda dalachoy ekilgan maydonlarni o'simlik qoldiqlaridan tozalab uzunasiga va o'ndalangiga borona qilinib, azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlar bilan oziqlantiriladi. Dalachoy ekilgan yerlarda to'liq ko'chat saqlansa o'z vaqtida oziqlantirilsa, sug'orilsa va begona o'tlardan tozalansa har gektar yerdan o'rtacha 3—4 tonna xom-ashyo va 500—600 kg urug' yig'ib olish mumkin bo'ladi.

Xulosa. Dalachoy o'simligining o'ishi va rivojlanishi va hosildorligi oziqlanish maydoni yaniy ekish sxemasiga bog'liq ekanligi isbotlandi. Eng yuqori hosildorlik 60x10 sm sxemada ekilganda olingan bo'lib bu variantga dorivorlikga ishlatiladigan hom-ashyosi gekdardan 13 sentnerga, urug'lik hosili 350 kgni tashkil etdi. Bu variantda hosildorlikning yuqori bo'ishini bir gektar maydon birligida o'rtacha 150-160 tup o'simlik o'sishi bilan isbotlanadi. Dalachoy yetishtirish texnologiyasida 60x10 sm sxemdada ekilganda hosildorlik oshib, sifatli dorivor hom-ashyo va urug'lik yetishtirish imkoniyati mavjud.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20 may 2022 yildagi "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishslash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-251-sonli qarori.

2. Begmatova M.X., Hamdamov I. Dalachoy (*Hupericum perforatum L.*). urug' va mevasining yetilishi va tuzilishi // Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi.- 2020, №3/1(59). 17-19 b. (03.00.00; № 12).

3. Begmatova M.X. Dalachoy (*Hupericum perforatum L.*) urug'inining unib chiqishiga ekish muddatlari va chuqurligining ta'siri // O'zbekiston agrar fani xabarnomasi.-Toshkent, 2020, № 3 (81). 113-116.-b (03.00.00; № 8).

4. Begmatova M.X., Hamdamov I.H. Samarqand viloyati sharoitida madaniylashtirilgan *Hupericum perforatum L.* ning kimèviy tarkibi // O'zMU xabarları Toshkent, 2020, № 3/2. 11-13-b. (03.00.00; № 9).

5. Begmatova M.X., Khamdamov I. Features of ontogenesis of dalachoi (*Hupericum perforatum L.*). // Asian journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 9 Issue 2, February, 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 6.882. № 1. B.220-223. II



- 
6. Begmatova M. X. Dalachoy (huperisum perforatum l) o'simligi vegetativ, generativ organlarining shakllanishiga ekish usullarining ta'siri. J. O'zbekiston agrar fani xabarnomasi. 2020, №2 (80). b. 57-60.
  7. Haydarov X.Q. Toshpulatov Y.I. Jalov X. Muqimov I.O'. O'simliklar sistematikasi. - Samarqand. 2019y. 119-120- b.
  8. Pratov O', Jumayev K. Yuksak o'simliklar sistematikasi. - Toshkent. 2003.140- b.

